

# **Uzbekistan Airways “Yoshlar turizmi haftaligi” munosabati bilan 21% chegirma e’lon qiladi**

**2023 14 Mart**

“Yoshlar turizmi haftaligi” o’tkazilishi munosabati bilan Uzbekistan Airways joriy yilning 23-31 mart kunlari mahalliy yo’nalishlardagi aviaqatnovlarga 12 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan (O’zbekiston Respublikasi fuqarosi) maktab o’quvchilari, talabalar va yoshlar uchun ekonom klass tariflariga 21% chegirma e’lon qiladi.

Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish uchun undiriladigan yig’imlarga nisbatan qo’llanilmaydi. Qisman foydalanilmagan aviachipta uchun mablag’larni qaytarish summasini hisoblash uchun chegirmani qo’llamagan holda foydalanilgan yo’nalishdagi tarif chiqarib tashlanadi.

To’liq foydalanilmagan yoki qisman foydalanilgan aviachiptani qayta rasmiylashtirganda, agar uchish sanalaridan biri chegirma taqdim etiladigan vaqtga to’g’ri kelmasa, chegirma qo’llanilmagan holda, tarif to’liq undiriladi.

Chegirmali aviachiptalarni rasmiylashtirish uchun faqatgina Uzbekistan Airways Sales yoki uning agentlariga murojaat qilishingiz kerak.